



SOG'LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR

Respublika ilmiy-amaliy
masofaviy konferensiyasi



zenodo



<https://innopublication.com>



“SOG‘LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

Ushbu to‘plamda **“SOG‘LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”** nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasining 2026-yil 5-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

“Sog‘liqni saqlashda yangi yondashuvlar” nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi tibbiyot va sog‘liqni saqlash tizimida zamonaviy yondashuvlar, innovatsion davolash usullari, diagnostika texnologiyalari hamda profilaktika yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Konferensiya materiallari tegishli soha mutaxassislari tomonidan ko‘rib chiqilgan original ilmiy maqolalar va tezislardan iborat bo‘lib, unda professor-o‘qituvchilar, shifokorlar, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli talabalar hamda mustaqil tadqiqotchilar ishtirok etishlari mumkin.

Konferensiya har oyda bir marotaba tashkil etilib, barcha ishtirokchilarga **sertifikat, maqola pdfi, DOI raqami** hamda **konferensiya to‘plami** taqdim etiladi.

“INNOVATIVE PUBLICATION”- ILMIY TADQIQOTLARNI
QO‘LLAB-QUVVATLASH MARKAZI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO‘PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

<http://innopublication.com>



INNOPUBLICATION.COM



CLASSIFICATION OF ENTITIES ENGAGED IN MEDICAL SERVICES

Muxammadiyev Zarrukh Umarovich

Acting Associate Professor of the Department of Accounting in Other Industries
and Auditing of the Samarkand Institute of Economics and Service, DSc

Shamsikulova Mohina Bonu Furkatovna

Scientific applicant, Samarkand Institute of Service and Economics

Abstract

The volume of medical services performed by state and non-governmental organizations is researched in the article, the interpretation of medical services as an important object of accounting and the specific features of their accounting, the current state of accounting in the provision of services in the main activities of non-state medical organizations, and the classification bases of non-state medical organizations as accounting entities are developed.

Keywords

medical organizations, non-governmental medical organizations, medical services, medical services accounting, medical services cost accounting, financial reporting.

ТИББИЙ ХИЗМАТЛАР КЎРСАТИШ ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУЎУЛЛАНУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ТАСНИФИ

Мухаммадиев Заррух Умарович

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти "Бошқа тармоқларда бухгалтерия
ҳисоби ва аудит" кафедраси доценти в.б., и.ф.д. (DSc)

Шамсикулова Мохина Бону Фуркатовна

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Мақолада давлат ва нодавлат ташкилотлари томонидан амалга оширилган тиббий хизматлар ҳажми тадқиқ этилган бўлиб, тиббий хизматларнинг



бухгалтерия ҳисобининг муҳим объекти сифатидаги талқини ва улар бухгалтерия ҳисобини юритишнинг ўзига хос хусусиятлари, нодавлат тиббиёт ташкилотларида асосий фаолият бўйича хизматларни кўрсатишда бухгалтерия ҳисобининг амалдаги ҳолати ёритилган ҳамда нодавлат тиббиёт ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги таснифий асослари ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: тиббиёт ташкилотлари, нодавлат тиббиёт ташкилотлари, тиббий хизматлар, тиббий хизматлар бухгалтерия ҳисоби, тиббий хизматларга оид харажатлар бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисобот.

КЛАССИФИКАЦИЯ СУБЪЕКТОВ, ОКАЗЫВАЮЩИХ МЕДИЦИНСКИЕ УСЛУГИ

Мухаммадиев Заррух Умарович

и.о. доцент кафедры “Бухгалтерский учет в других отраслях и аудит”

Самаркандского института экономики и сервиса, д.э.н (DSc)

Шамсикулова Мохина Бону Фуркатовна

Научный соискатель, Самаркандского института экономики и сервиса

Аннотация. В статье исследуется объем медицинских услуг, оказываемых государственными и негосударственными организациями, рассматривается толкование медицинских услуг как важного объекта учета и особенности их учета, текущее состояние учета при оказании услуг в основных видах деятельности негосударственных медицинских организаций, а также разрабатываются классификационные базы негосударственных медицинских организаций как субъектов учета.

Ключевые слова: медицинские организации, неправительственные медицинские организации, медицинские услуги, бухгалтерский учет медицинских услуг, учет затрат на медицинские услуги, финансовая отчетность.



“SOĞ‘LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

Республикамизда тиббиёт ташкилотларида тиббий хизматларни кўрсатиш бўйича амалга оширилган харажатлар ва олинган даромадларни назорат қилиш ва уларнинг бухгалтерия ҳисобини юритиш муҳим ҳисобланади. Хусусан, Ўзбекистон Республикасида ишлаб чиқилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда “пуллик тиббий хизмат кўрсатиш билан боғлиқ бўлган даромадлар ва харажатлар сметаси, штатлар жадвали даволаш-профилактика муассасалари томонидан ҳар йили тузилади ва тасдиқланади ҳамда бюджет маблағларини тақсимловчилар томонидан харажатлар сметаси учун белгиланган муддатларда ва тартибда рўйхатдан ўтказилади”¹ деб келтирилган бўлиб, тиббиёт ташкилотлари фаолиятини тартибга солишда, жумладан тиббиёт ташкилотларида харажатларни бошқариш, тиббий хизматларни кўрсатишдан олинган даромадларни бухгалтерия ҳисобида тан олиш тиббий хизматлар рентабеллигини назорат қилиш муҳим ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Бугунги кунда соғлиқни сақлаш соҳаси олдида қўйилган долзарб вазифалар тиббий хизматлар соҳасида банд бўлган ташкилотлар, жумладан давлат ва нодавлат тиббиёт ташкилотлари олдида қатор вазифаларни амалга оширишнинг зарурият қилиб белгилаб беради. Хусусан, нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматлар сифатини илғор хорижий тажрибаларга мувофиқлигини таъминлаш, харажатларни тўғри назорат қилиш ва уларни бошқариш, ташкилотларнинг асосий фаолиятларини амалга ошириш бўйича даромад ва харажатлар бухгалтерия ҳисобини тўғри ташкил этиш нодавлат тиббиёт ташкилотлари молия-хўжалик фаолиятининг энг муҳим вазифаларидан ҳисобланади. Қолаверса, ушбу санаб ўтилган жараёнлар бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва тўғри юритиш, нодавлат тиббиёт

¹ Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. 2025 йил 27 январь. 3603-сон.





“SOʻLIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

ташкilotлари ички ва ташқи ахборот фойдаланувчиларини тиббий хизматларга оид ахборотлар билан таъминлаш даражасини ошириш, ташкilotда бошқарув ходимлари томонидан стратегик аҳамият касб этадиган бошқарув қарорлар қабул қилишлари учун шаффоф бухгалтерия ҳисоботларини тақдим этиш, мамлакатда ташқи инвесторларни жалб қилиш мақсадида молиявий ҳисоботларни халқаро стандартларга мувофиқлаштириш ва уларнинг тиббий хизматларга оид ахборот қамровини янада кенгайтириш бўйича вазифалар нодавлат тиббиёт ташкilotлари олдида турган бугунги куннинг энг долзарб ва муҳим вазифаларидан ҳисобланади. Хорижий адабиётларда нодавлат тиббиёт ташкilotлари фаолиятига қуйидагича таъриф берилган: “бу давлат кафолатлари дастурига киритилмаган аҳолига пуллик тиббий хизматлар кўрсатиш, тиббий товарларни сотиш, тиббий хизматлар билан боғлиқ хизматлар кўрсатиш, юридик шахсларга пуллик тиббий хизматлар кўрсатиш ва қонун ва муассаса эгаси томонидан рухсат этилган бошқа фаолият турлари”². Ушбу таърифдан кўриш мумкинки, нодавлат тиббиёт ташкilotлари томонидан амалга ошириладиган фаолиятлар таркиби анча кенг бўлиб, мазкур ташкilotлар томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматлар ўзига хос ижтимоий-иқтисодий хусусиятларга эга.

Юқорида тадқиқ этилган тиббий хизматлар бўйича кўрсаткичлар мамлакат ижтимоий-иқтисодий ривожланишида муҳим аҳамиятга эга ҳисобланиб, ушбу хизматлар бугунги кунда давлат ва нодавлат тиббиёт ташкilotлари томонидан амалга оширилиб келинмоқда. Буни қуйида келтирилган расм кўринишида ифодалаш мумкин (1-расм):


1-расм. Тиббий хизматлар кўрсатиш фаолияти билан шуғулланувчи субъектлар таснифи³

² Прокопович Е.В. Особенности бухгалтерского учета и отчетности негосударственных медицинских учреждений. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Москва: 2007. 27-с.

³ Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026



Демак, мамлакатимизда тиббий хизматларни кўрсатиш фаолияти билан шуғулланувчи тиббиёт ташкилотлари юқорида таъкидланганидек, давлат тиббиёт ташкилотлари ва нодавлат тиббиёт ташкилотларига таснифланади.

Бугунги кунда хусусий секторни ривожлантиришга қаратилинаётган оқилona сиёсат натижасида нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолияти ҳам тобора ривожланиб бормоқда. Натижада, Ўзбекистон Республикасида 2025 йилга келиб, тиббиёт соҳасида нодавлат тиббиёт ташкилотлари сони салмоқли ҳиссани ташкил



**“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026**

этганлигига гувоҳ бўлиш мумкин. Жумладан, “2017 йилда хусусий шифохоналар сони қарийб 3,5 мингтани ташкил этган бўлса, бугунга келиб улар сони 9 мингдан ортди. Юртимизда кўрсатилаётган барча турдаги тиббий хизматларда ушбу секторнинг улуши саккиз йил ичида 10 фоиздан 30 фоизга етди. Жумладан, айти пайтда лаборатория хизматларининг 40, офталмология ва оператив офталмологиянинг 60, ЛОР ва эндоскопик ЛОР хизматларининг 70, стоматологик ташхис ҳамда муолажаларнинг 91 фоизи айнан хусусий клиникалар томонидан кўрсатиляпти”⁴. Республикамизда биргина 2025 йилнинг ўзида 1329 та нодавлат тиббиёт ташкилотлари рўйхатдан ўтган ва тегишли лицензия олиб, тиббий хизматларни кўрсатиш фаолиятини бошлаган. Мазкур кўрсаткич ҳудудлар кесимида таҳлил қилинадиган бўлса, энг катта улуш Тошкент шаҳрида қайд этилганлигига гувоҳ бўлиш мумкин бўлиб, мазкур ҳудудда 2025 йилнинг ўзида 251 та нодавлат тиббиёт ташкилотлари Давлат рўйхатидан ўтган. Шунингдек, бошқа ҳудудларда ҳам салмоқли натижаларга эришилган, жумладан Фарғона вилоятида – 169 та, Самарқанд вилоятида – 129 та, Андижонда – 121 та, Қашқадарёда – 117 та тиббий хизматларни амалга оширувчи нодавлат тиббиёт ташкилотлари ўз фаолиятларини амалга оширишни бошлаган⁵.

Хулоса. Изланишлар натижасида хулоса қилиш мумкинки, бугунги кунда нодавлат сектор таркибида тиббиёт йўналиши бўйича фаолият кўрсатаётган ташкилотлар сони тобора ортиб бормоқда. Ушбу нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятини тадқиқ этиш натижасида қуйидаги хулосаларга келинди:

Биринчидан, ҳар қандай хизмат тури сифатини оширишда бўлгани каби, тиббий хизматлар сифатини ошириш ҳам ташкилотлардан маълум бир ҳажмда харажатларни амалга оширишни талаб этади. Бу эса, ўз навбатида нодавлат тиббиёт ташкилотлари олдида харажатларни тўғри бошқаришни, тиббий

⁴ <https://gov.uz/oz/ssv/news/view/115859>

⁵ <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/svyshe-1300-chastnykh-klinik-otkrylis-v-uzbekistane-za-god/>





“SOĞ’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

хизматлар бўйича амалга ошириладиган харажатларни бухгалтерия ҳисоби, қолаверса бухгалтерия ҳисоботларида тўғри акс эттиришни долзарб вазифа қилиб қўяди. Зотан, бухгалтерия ҳисоботлари хўжалик юритувчи субъектларда хизматларни кўрсатиш бўйича натижаларни, жумладан даромад ва харажатларни ҳамда фойда ва зарар каби молиявий натижаларга оид кўрсаткичларни таҳлил қилиш имкониятини бериб, ушбу жиҳатлар бошқарув ходимларининг энг оптимал қарорларни қабул қилишларига имконият беради.

Иккинчидан, тадқиқот давомида эришилган натижаларни умумлаштирган ҳолда хулоса қилиб айтиш жоизки, нодавлат тиббиёт ташкилотлари фаолиятини бухгалтерия ҳисобининг энг муҳим субъектлари сифатида тадқиқ этиш, улар томонидан амалга ошириладиган фаолиятларнинг ўзига хос хусусиятларини тадқиқ этган ҳолда молиявий ва бошқарув бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритишга оид илмий-назарий ҳамда амалий-услубий тавсиялари ишлаб чиқиш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади.

Юқорида қайд этилган долзарб вазифалардан келиб чиққан ҳолда мазкур тадқиқот ишида нодавлат тиббиёт ташкилотлари томонидан кўрсатиладиган тиббий хизматларга оид илмий-назарий асослар, жумладан уларнинг тавсифий ва таснифий асосларини такомиллаштириш, тиббий хизматларни бухгалтерия ҳисобида тан олиш ва акс эттиришга қаратилган илмий изланишлар олиб борилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг “Пуллик тиббий хизмат кўрсатадиган даволаш-профилактика муассасаларини молиялаш тартибини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. 2025 йил 27 январь. 3603-сон.

2. Прокопович Е.В. Особенности бухгалтерского учета и отчетности негосударственных медицинских учреждений. Автореферат диссертации на



"SOĞ'LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR"
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

соискание ученой степени кандидата экономических наук. —Москва: 2007. 27-с.

3. Боронов Б.Ф., and Мустафоев А.Ф.. "НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 926-929.

4. Боронов Б.Ф., and Саломов Ш.Ф.. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 921-925.

5. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY* 1.1 (2025): 282-289.

6. Боронов, Бобур, and Шавкат Саломов. "ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ." *Экономическое развитие и анализ* 3.2 (2025): 268-274.

7. Боронов, Б. Ф., and Ш. Ф. Саломов. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ." *Экономика и социум* 5-2 (120) (2024): 921-925.

8. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Нодавлат Таълим Ташкилотларида Даромадлар Ҳисобининг Илмийназарий Асослари." *Economic Development and Analysis* 3.5: 288-294.

9. Боронов, Бобур, and Миржалол Ахмедов. "Республика Миллий Иқтисодиётини Ривожлантиришда Нодавлат Олий Таълим Ташкилотларининг Ўрни Ва Аҳамияти." *Economic Development and Analysis* 3.8: 167-173.



ISSUES OF IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS ENGAGED IN ATHLETICS CLUBS AT SPORTS SCHOOLS

SHERDANAQULOVA MUXAYYO ABDIJALILOVNA

Master's Student, Karshi State University

Abstract

This article addresses the issues of improving the physical fitness of 11–12-year-old students engaged in athletics clubs at sports schools. It analyzes the importance of developing the physical qualities of young athletes, individualizing training sessions, assessing their level of physical preparedness through control tests, and taking into account the characteristics of biological development.

Keywords

athletics, physical fitness, young athletes, physical qualities, control tests

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sport maktablarining yengil atletika to'garaklarida shug'ullanuvchi 11–12 yoshli o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish masalalari yoritilgan. Yosh sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, mashg'ulotlarni individuallashtirish, nazorat testlari orqali tayyorgarlik darajasini baholash hamda biologik rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *yengil atletika, jismoniy tayyorgarlik, yosh sportchilar, jismoniy sifatlar, nazorat testlari*

Kirish. Har qanday sport turida sportchining jismoniy tayyorgarligi yoki uning harakat qilish imkoniyatlarini jismoniy sifatlardan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik) aniqlasa bo'ladi. Jismoniy sifatlarni takomillashtirish asosida organizmning o'z ishlash qobiliyati darajasidan qo'shimcha, jismoniy yuklamaga bardosh bera olishi qobiliyati yotadi



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2023

Yosh yengil atletikachilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida har tomonlama jismoniy tayyorgarlikni egallashga, sog’liqni mustahkamlash va garmonik rivojlanishga, xilma – xil ko‘nikma va malakalarni egallab olishga, yengil atletika o‘yini texnikasi va taktikasining boshlang‘ich asoslariga o‘rgatishga qaratilgan vositalar kompleksidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism. Jismoniy tayyorgarlikning bu vaqtdagi vazifasi avvalo, yosh yengil atletikachilarning harakat funksiyalarini (o‘z harakatlarini vaqt oralig‘ida, havoda va muskullarning zo‘r berish darajasiga ko‘ra boshqara bilish harakat funksiyasining asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib hisoblanadi) shakllantirishdan iborat bo‘ladi. Harakatlar tezligini tarbiyalashga katta e‘tibor berish kerak, chunki bolalik va o‘smirlik yoshida ana shu eng muhim jismoniy sifatni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjuddir.

Zamonaviy qarashlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yengil atletika sport turi bilan ilk shug‘ullantirishda asosiy e‘tibor jismoniy tayyorgarlik, texnik ko‘nikmalar va taktik fikrlash asoslarini bosqichma–bosqich takomillashtirishga qaratiladi. Bu bo‘limlarning har biri uchun amaliy mashg‘ulotlar to‘plami, o‘quv sikllarini rejalashtirish, pedagogik nazorat usullari taklif etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, turli yoshdagi yengil atletikachilarni jismoniy tayyorgarliklarini oshirish quyidagi umumiy vazifalarni inobatga olgan va ulardan ajralmagan holda tashkil etiladi:

1. Tanlangan yosh guruhlarida mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli davom ettirishga tayyorgarlik darajasini baholash (Nazorat test sinovlari).

2. Yosh guruhlarining "ta'qiqlangan" va "qulay" davrlariga muvofiq, ishtirok etuvchilar tanasining uyg‘un shakllanishiga, sog‘lig‘ining mustahkamlanishiga, jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ko‘maklashishni davom ettirish.



"SOG'LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR"
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

3. Integral harakatning barcha detallarida harakatni ongli ravishda nazorat qilib, organizm rivojlanishini barqaror, qoniqarli darajada hal qilish qobiliyatini shakllantirish.

Ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan qator olimlarning keltirgan dalillariga ko'ra cheklangan yosh zonalari bo'yicha ham, ma'lum jismoniy fazilatlar va qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay bo'lgan yosh zonalari bo'yicha ham 11-12 yoshli o'quvchi yoshlarda bu yosh davrining quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim:

11 yosh uchun butun organizm faoliyatining yanada yaxshilanishi xarakterlidir. Intensiv o'sish va tananing barcha o'lchamlarining o'sishi qayd etilgan - "ikkinchi cho'zilish" davriga to'g'ri keladi. 12 yoshda ularning butun umri davomidagi o'sishining 86% ga erishiladi. Bu davrda tana qismlarining notekis o'sish belgilari aniq namoyon bo'ladi, bu esa tana nisbatlarining o'zgarishiga olib keladi. 11 yoshdan boshlab barcha mushaklar va kuchlarning jadal rivojlanishi kuzatiladi. Bu mushak tizimi va harakat faoliyati funksiyalarini faol takomillashtirish bosqichidir.

11 yoshgacha bo'lgan davr - jismoniy ishchanlik qobiliyati o'sishining dastlabki bosqichi hisoblanib, 11 yil ichida o'sish 3-4% gacha yetadi.

Bu yoshda sport bilan shug'ullangan sportchilarda ayeerob va anayeerob imkoniyatlar yosh sportchilarning mushaklarining maksimal ishlashini cheklaydigan omillardan biridir. O'smirlardagi ayeerob qobiliyatlari anaerobiklarga qaraganda ancha yuqori.

Sport bilan shug'ullanish nuqtai nazaridan, bu yosh hal qiluvchi hisoblanadi. Aynan shu davrda tezlik, kuch, chaqqonlik kabi jismoniy sifatlarning poydevori qo'yiladi, sport xarakteri shakllanadi

Bu davrda motor analizatorining energetik funksional kamoloti sodir bo'ladi. Shu bilan birga, mushak – skelet tizimida sezilarli o'zgarishlar qayd etiladi: suyak to'qimasi



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

mustahkamlanadi, mushaklar o’sadi va sifat jihatidan o’zgaradi. Natijada, harakatni muvofiqlashtirish yaxshilanadi.

O’sish davrlari, energiya va metabolik jarayonlarning sezilarli faollashuvi bilan, sekin o’sish davrlari bilan almashtiriladi, bu esa tana vaznining eng katta to’planishi va farqlanish jarayonlarining ustunligi bilan kechadi. Tizimli mashqlar harakatlarning fazoviy aniqligini tahlil qilish qobiliyatini yaxshilaydi. 11-12 yoshli o’smirlar allaqachon murakkab harakatlarni muvofiqlashtirishni bajarishlari mumkin.

Fazoni his qilishning alohida ko’rsatkichlari yuqori darajadagi mukammallikka erishadi: harakatlar amplitudasi, berilgan balandlikka sakrash aniqligi ortadi. Biroq, psixomotor funksiyalarning yetarli darajada emasligi hali ham yuqori darajadagi tezlik va harakatlarning aniqligiga erishishga imkon bermaydi. Jismoniy o’sish va yetuklik jarayoni aqliy va ijtimoiy rivojlanish bilan birga keladi: o’z-o’zini anglashning o’sishi, konkretan mavhumroq fikrlashga o’tish kuzatiladi. Ikkinchi signal tizimi tez rivojlanadi, o’smir allaqachon u yoki bu yarim ixtiyoriy harakatni ongli ravishda idrok qilishga qodir bo’ladi.

Bir hil guruhlarini tanlash va shug’ullantirish metodologiyasini hisobga olgan holda birinchi bosqichdagi tanlashning nazorat o’lchovlari natijalariga ko’ra va o’quvchilarni ta’lim darajasiga qarab guruhlariga bo’linadi. Mashg’ulotlarda vazifalarning bir xil turdagilari tanlanadi. Masalan, birinchi guruhga past tezlik qobiliyatiga ega yengil atletikachilar, ikkinchisiga chidamlilik pastligi, uchinchisiga kuch va tezlik sifatleri kiradi. Bu jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishga va ularning sport mahoratining o’sish sur’atlarini cheklaydigan mashg’ulotlarga maqsadli ta’sir ko’rsatishga imkon beradi. Guruhlar doimiy nazorat ostida bo’lishi kerak, shunda nazorat tekshiruvlari natijalarida o’zgarishlar bo’lsa, guruhlarining maqsadli yo’nalishiga o’zgartirishlar kiritilishi mumkin. Tanlovda asosiy omil bolalarning oldindan tanlangan kontingentining muvaffaqiyatli mutaxassislik talablariga



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

muvofigligini chuqur tekshirishdir. Maxsus jismoniy sifatlar, umumiy jismoniy sifatlar va boshlang‘ich tayyorgarlikning mavjudligi bolalar va o‘smirlarning sport qobiliyatlari darajasini aniqlashga, ularning qo‘shimcha tayyorgarlik uchun yaroqliligini aniqlashga imkon beradi. Maktab murabbiyi pedagogik kuzatuvlar, suhbatlar, nazorat testlari (testlar) asosida shug‘ullanuvchilarning potensial imkoniyatlarini aniqlaydi va eng qobiliyatli guruhlarni shunga qarab belgilaydi. Jismoniy fazilatlarni sinab ko‘rayotganda, ularning rivojlanish darajasini aniqlash bilan cheklanib qolmaslik kerak, chunki u har doim ham rivojlanish salohiyatiga mos kelavermaydi. Yuqori darajadagi jismoniy fazilatlarning kombinasiyasi va ularning rivojlanishining yuqori sur‘atlari yosh sportchining istiqbollari haqida rejalashtirishga imkon beradi.

Sportchilarning kelajagini bashorat qilishda shuni yodda tutish kerakki, yosh sportchining o‘rishining yuqori darajasi, ayrim hollarda, biologik kamolotning teng bo‘lmagan tezligi natijasidir. Ma’lumki, ba’zi bolalar biologik jihatdan tezroq, boshqalari sekinroq pishib yetishadi. Asta – sekin o‘rib borayotgan yosh sportchilarda ma’lum yoshdagi o‘rish sur‘atlari tez o‘rib borayotgan bolalarga qaraganda past bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘rish sur‘atlarini baholashda nafaqat kalendar (pasport) yoshini, balki biologik rivojlanishning individual stavkalarini ham hisobga olish kerak.

12 yoshda o‘yin faoliyati va uning samaradorligi ko‘p jihatdan tezlik fazilatlarining rivojlanish darajasiga, kamroq jihatdan esa tezlik kuchiga bog‘liq. Aynan shu davrda tezlik ko‘rsatkichlarining rivojlanish tezligi kuzatilgan. Tezlikni rivojlantirish uchun sprint mashqlari ham, tezlik mashqlari ham qo‘llaniladi. Umuman olganda, tezlikni namoyon qilish va harakatlarni muvofiqlashtirishning barcha shakllarini takomillashtirish kerak, chunki yugurish texnikasini yetarli darajada o‘zlashtira olmagan uchun o‘yin faoliyatida yugurishning pastligi kuzatiladi.

Tayyorgarlik darajasini baholash “Nazorat testlari” bo‘yicha o‘tkaziladi, uning natijalari maxsus qayd etish jadvaliga yozib boriladi. Bu testlarning asosiy maqsadi



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

tajriba va nazorat guruhlariga jalb qilingan o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajalarini aniqlashdan iborat.

Tayyorgarlikning boshqa ko‘rsatkichlarini o‘lchash orqali biz yosh shug‘ullanuvchilarning holati va ularning keyingi mashg‘ulotlar uchun imkoniyatlari haqida keng ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Salamov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. -Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 286 b.
2. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent: Fan, 2018. – 320 b.
3. Usmonxodjayev T.S. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 280 b.
4. Xankeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. - Toshkent: Tafakkur, 2019. – 304 b.
5. Olimov M.S. Yengil atletika nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.
6. Soliyev I.R. Yengil atletikachilarni tayyorlash asoslari. --Toshkent: Tafakkur, 2021. – 248 b.



“SOG’LIQNI SAQLASHDA YANGI YONDASHUVLAR”
nomli respublika ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyasi
VOLUME-1, ISSUE-5, 2026

TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	CLASSIFICATION OF ENTITIES ENGAGED IN MEDICAL SERVICES Muxammadiyev Zarrukh, Shamsikulova Mohina Bonu	3-10
2.	ISSUES OF IMPROVING THE PHYSICAL FITNESS OF STUDENTS ENGAGED IN ATHLETICS CLUBS AT SPORTS SCHOOLS SHERDANAQULOVA MUXAYYO	11-16

